O‘ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDA KO‘PLIK SHAKLINING DIAXRON VA SINXRON DAVR NUQTAYI NAZARIDAN QIYOSIY TAHLILI.

Soliyeva Mexribon Olimjon qizi

O'zMU Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi:o‘zbek tili yo‘nalishi bakalavr 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:Muhabbat Qurbonova.

Annotatsiya:Mazkur maqolada o‘zbek adabiy tilida ko‘plik kategoriyasining diaxron va sinxron jihatlari qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi.Tadqiqotda uning tarixiy taraqqiyoti,qadimgi turkiy manbalari va hozirgi o‘zbek adabiy tili orasidagi farqlari va birlashtiruvchi xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, eski o‘zbek adabiy tili namunalari hamda zamonaviy matnlar asosida ko‘plik affiksi (-lar) ning grammatik, semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi.Maqolada sinxron tahlil orqali hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘plik kategoriyasining funksional imkoniyatlari ochib beriladi .Tadqiqot natijalari ko‘plik kategoriyasining o‘zbek til tizimidagi nafaqat morfologik, balki funksional-semantik va uslubiy ahamiyatini ham yoritishga xizmat qiladi.

Abstract: This article studies the diachronic and synchronous aspects of the plural category in the Uzbek literary language on the basis of comparative analysis. The study examines its historical development, differences and unifying features between ancient Turkic sources and the modern Uzbek literary language. In particular, the grammatical, semantic and stylistic features of the plural affix (-s) are analyzed based on samples of the old Uzbek literary

language and modern texts. The article reveals the functional possibilities of the plural category in the modern Uzbek literary language through synchronous analysis. The results of the study serve to shed light not only on the morphological, but also on the functional-semantic and stylistic significance of the plural category in the Uzbek language system.

Аннотация: В данной статье на основе сравнительного анализа изучаются диахронические и синхронные аспекты множественного числа в узбекском литературном языке. Рассматривается его историческое развитие, различия и объединяющие черты между древнетюркскими источниками и современным узбекским литературным языком. В частности, анализируются грамматические, семантические и стилистические особенности аффикса множественного числа (-s) на основе образцов древнеузбекского литературного языка и современных текстов. Статья раскрывает функциональные возможности множественного числа в современном узбекском литературном языке посредством синхронного анализа. Результаты исследования позволяют пролить свет не только на морфологическое, но и на функционально-семантическое и стилистическое значение множественного числа в узбекской языковой системе

Kalit so‘zlar:Ko‘plik kategoriyasi, diaxron tahlil, sinxron tahlil , qiyosiy tilshunoslik, o‘zbek adabiy tili, morfologik kategoriya, -lar affiksi, semantik kengayish, stilistik funksiya .

Keywords: Plural category, diachronic analysis, synchronic analysis, comparative linguistics, Uzbek literary language, morphological category, -s affix, semantic expansion, stylistic function, zero plural.

Ключевые слова: категория множественного числа, диахронический

анализ, синхронический анализ, сравнительная лингвистика, узбекский литературный язык, морфологическая категория, аффикс -s, семантическое расширение, стилистическая функция, нулевое множественное число.

Kirish qismi:

Til tizimida grammatik kategoriyalar muhim strukturaviy va semantik vazifani bajaradi. Shunday kategoriyalardan biri ko‘plik kategoriyasi bo‘lib, u predmet va hodisalarning miqdoriy munosabatini ifodalash bilan birga, turli semantik hamda uslubiy ma’nolarni ham anglatadi. O‘zbek tilida ko‘plik asosan -lar affiksi orqali ifodalanadi va bu shakl tarixiy jihatdan barqaror morfologik vosita sifatida shakllangan. Biroq ko‘plik kategoriyasi faqat miqdor ifodalovchi grammatik birlik sifatida emas, balki funksional-semantik va pragmatik jihatdan ham keng imkoniyatlarga ega hodisa hisoblanadi.

Til birliklarini o‘rganishda diaxron va sinxron yondashuv muhim metodologik asos sanaladi.Diaxroniya — til tizimining lingvistik tadqiqot manbai sifatidagi tarixiy taraqqiyoti, til taraqqiyotini vaqt nuqtai-nazaridan o‘rganish.Tilshunoslikda bu tushuncha sinxroniyaga qarama-qarshi qo‘yiladi. Diaxronik lingvistika ba’zan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, 20-asrdan boshlab tarixiy fonetika bilan aynan bir narsa deb qaraldi.[1] Sinxroniya — bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lgan, o‘zaro boglik va aloqador unsurlar tizimi bo‘lgan tilning muayyan rivojlanish davridagi holati; til rivojlanishi jarayonida muayyan o‘zgarishlarning mavjudligi yoki ularning ahamiyatsiz ekanligi belgisi asosida ajratilgan davr.[2] Bu ikki yondashuv o‘rtasidagi farq ilk bor ilmiy asosda Ferdinand de Sassyur omonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, sinxron tahlil tilni muayyan davr kesimida o‘rganishni, diaxron tahlil esa uning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishni nazarda tutadi. Mazkur metodologiya ko‘plik

[1] https:// uz.wikipedia.org
[2] https://uz.wikipedia.org

kategoriyasining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holatini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbek adabiy tilining turli tarixiy bosqichlarida ko‘plik shaklining qo‘llanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Xususan, qadimgi turkiy yodgorliklar, jumladan O'rxon-Yenisey bitiklari tilida ko‘plik asosan grammatik vazifani bajargan bo‘lsa, eski o‘zbek adabiy tili davrida, ayniqsa Alisher Navoiy asarlarida ko‘plik shakli stilistik va poetik ma’no qirralarini ham kasb etgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa ko‘plik kategoriyasi grammatik ma’nodan tashqari hurmat, umumlashtirish, mavhumlik va ekspressivlik kabi qo‘shimcha semantik yuklamalarni ham ifodalaydi.

Tilshunos Ayyub G`ulomov “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi “nomli kitobida ko`plikning polisemantik ma`nolarini ham aytib o`tgan.Shu bilan birga olim morfologik,leksik va sintaktik ifodalanishini ham ko`rsatin o`tgan.[3]

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek adabiy tilida ko‘plik kategoriyasining diaxron va sinxron xususiyatlarini qiyosiy tahlil asosida o‘rganishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida ko‘plik shaklining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, uning hozirgi til tizimidagi funksional-semantik imkoniyatlarini tavsiflash hamda turli davr adabiy matnlari asosida qiyosiy tahlilni amalga oshirish belgilandi.Tadqiqot obyekti — o‘zbek adabiy tilidagi ko‘plik shakllari, predmeti esa ko‘plik kategoriyasining tarixiy rivoji va zamonaviy qo‘llanish xususiyatlaridir. Tadqiqotda diaxron va sinxron tahlil, qiyosiy metod hamda matnshunoslik kuzatuvlari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar:

Ko‘plik kategoriyasining diaxron taraqqiyoti:Qadimgi turkiy tilda ham otlar

[3] Ernazarova Mahliyoxon Qobiljonovna .” Ayub G`ulomovning o`zbek tilshunosligida grammatik kategoriyalarga oid tadqiqi(otlarda ko`plik kategoriyasi misolida)”.

ko‘plik va birlik shaklda qo‘llanilgan.Otlar birlikda qo‘llanganda maxsus ko‘rsatkich bo‘lmaydi.Ko'plikni ifodalashning morfologik usuli sermahsuldir.[4]

Turkiy tillarda ko‘plik kategoriyasi eng qadimiy morfologik vositalardan biri hisoblanadi. Qadimgi turkiy yozma manbalarda, xususan O`rxon-Yenisey bitiklari tilida ko‘plik asosan -lar/-ler affiksi orqali ifodalangan. Ushbu affiks fonetik muhitga moslashgan holda variantlashgan va grammatik jihatdan predmetning ko‘pligini bildirgan. Bu bosqichda ko‘plikning vazifasi asosan sof grammatik xarakterga ega bo‘lib, semantik kengayish darajasi cheklangan.

Shu bilan birga, ayrim hollarda kollektiv ma’no ifodalovchi birliklar ham uchraydi. Biroq ular hali stilistik yoki ekspressiv yuklama kasb etmagan. Demak, qadimgi turkiy davrda ko‘plik kategoriyasi morfologik barqarorlikka ega bo‘lgan, ammo funksional jihatdan tor doirada ishlatilgan.Ko`plab adabiyotlarda otlardagi ko‘plik kategoriyasi va -lar, -an, -t, -z qo‘shimchalarining funksiyasi, ularning kelib chiqishi (etimologiyasi) haqida batafsil ma’lumot berilgan[5].

Eski o‘zbek adabiy tili davriga kelib, ko‘plik affiksi semantik va stilistik jihatdan faollasha boshlaydi. Nasimxon Rahmonov "O'zbek tili tarixi" darsligida O‘rxun-Enasoy yodgorliklari tilining morfologik tahlili qismida ko‘plik qo‘shimchalari (xususan, unvonlardagi -t va juftlikni bildiruvchi -z) aniq misollar bilan tushuntirilgan.Ayniqsa Alisher Navoiy asarlarida ko‘plik shaklining poetik-estetik imkoniyatlari kengaygani kuzatiladi. Masalan:“ko‘ngullar” ,“dillar” “yuzlar”

Bu kabi birliklarda real miqdor emas, balki umumlashtirish, ichki kechinmaning ko‘lamdorligi yoki obrazning kuchaytirilishi ifodalanadi. Ko‘plik shakli abstrakt tushunchalar bilan qo‘llanib, majoziy ma’no kasb etadi. Bu

[4] Abdushukurov Baxtiyor Bo`riyevich.O`zbek tili tarixi:darslik.Toshkent:,,Nodirabegim’’ nashriyoti,2021,B.49.
[5] Sodiqov Qosimjon.Qadimgi turkiy til.Toshkent,2000,92-95.

jarayon ko‘plik kategoriyasining grammatik bosqichdan funksional-semantik bosqichga o‘tganini ko‘rsatadi.

XX asr o‘zbek adabiyotida, xususan Abdulla Qodiriy va Oybek asarlarida ko‘plik shakli yanada murakkab pragmatik vazifalarni bajargan. Unda ijtimoiy qatlamni ifodalash, umumlashtirilgan obraz yaratish, tipiklashtirish kabi uslubiy maqsadlar namoyon bo‘ladi.

*Sinxron tahlil: hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘plik.*Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘plik kategoriyasi ko‘p funksiyali tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Sinxron kesimda uning quyidagi ma’no turlari aniqlanadi:

- Konotativ ma`nodagi ko‘plik:Predmetning son jihatdan ortiqligini bildiradi:kitoblar,talabalar,uylar .Bu holatda ko‘plik affiksi grammatik vazifani bajaradi.
- Hurmat ma’nosidagi ko‘plik:O‘zbek tilida ko‘plik affiksi shaxsga nisbatan hurmat yoki ehtiromni bildiradi:Otam keldilar.Ustoz gapirdilar.Bu yerda referent bitta shaxs bo‘lsa-da, ko‘plik shakli pragmatik ma’no yuklaydi. Bu hodisa grammatik ko‘plikning sotsiolingvistik funksiyaga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.
- Umumlashtiruvchi ko‘plik:Odamlar shunaqa bo‘ladi.Shoirlar doim izlanishda bo‘ladi.Bu yerda ko‘plik muayyan guruhni emas, balki tipik sinfni anglatadi.
- Ekspressiv va poetik ko‘plik:Zamonaviy she’riyatda, jumladan Abdulla Oripov ijodida ko‘plik shakli obrazlilikni kuchaytirish vositasi sifatida qo‘llanadi. Masalan:Yuraklar titradi.Ko‘zlar so‘zladi.Bu holatda ko‘plik ma’no kuchaytirish va hissiylikni oshirish vazifasini bajaradi.
- Nol ko‘plik hodisasi:O‘zbek tilida ayrim so‘zlar morfologik ko‘plik

affiksisiz ham ko‘plik ma’nosini ifodalashi mumkin:xalq,el,aholiBu hodisa ko‘plik kategoriyasining semantik darajada mustaqillashganini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijalari

Diaxron va sinxron davrdagi ko`plik kategoriyasini qiyoslash orqali quyidagi ilmiy kuzatuvlar aniqlandi:Ko‘plik affiksi shaklan tarixan barqaror (-lar) bo‘lib qolgan.Semantik yuklama tarix davomida kengaygan.Grammatik vazifadan tashqari stilistik va pragmatik funksiyalar paydo bo‘lgan.

Ko‘plik kategoriyasi funksional-semantik maydon sifatida rivojlangan.Hozirgi bosqichda ko‘plik ko‘p qatlamli ma’no tizimiga ega.O‘tkazilgan diaxron va sinxron tahlil asosida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi qadimgi turkiy davrdan boshlab morfologik jihatdan barqaror shaklda saqlanib kelmoqda. Bu uning strukturaviy mustahkamligini ko‘rsatadi.Tarixiy taraqqiyot jarayonida ko‘plik affiksi semantik jihatdan kengayib, abstrakt tushunchalar bilan birikish imkoniyatiga ega bo‘lgan.Eski o‘zbek adabiy tilida ko‘plik shakli poetik-estetik funksiya kasb etgan va obraz yaratish vositasiga aylangan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘plik kategoriyasi grammatik, stilistik va pragmatik qatlamlarning integratsiyasi asosida faoliyat yuritadi.Ko‘plik kategoriyasi funksional-semantik maydon sifatida miqdor, hurmat, umumlashtirish, ekspressivlik va kollektivlik kabi ma’no turlarini qamrab oladi.Ko‘plik affiksining qo‘llanishi tilning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, diaxron taraqqiyot jarayonida ko‘plik kategoriyasi oddiy

grammatik ko‘rsatkichdan murakkab funksional tizim darajasiga ko‘tarilgan. Sinxron holatda esa u o‘zbek adabiy tilining morfologik va uslubiy boyligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.[6]Qadimgi turkiy tildagi ko'plik shakllarining hozirgi o'zbek tilidan farqli jihatlari, xususan, sonlar bilan kelganda ko'plik qo'shimchasi qo'shilmaslik qoidasi va sinxron qo'llanish holatlarida yuz bergan.[7]

Xulosa:

O‘zbek adabiy tilida ko‘plik kategoriyasining diaxron va sinxron tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur grammatik hodisa til tizimida nafaqat morfologik ko‘rsatkich, balki murakkab funksional-semantik mexanizm sifatida shakllangan. Qadimgi turkiy yozma manbalar, xususan O‘rxon-Yenisey bitiklari tilidan boshlab hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha bo‘lgan taraqqiyot jarayoni ko‘plik affiksining shaklan barqarorligini, mazmunan esa bosqichma-bosqich kengayganini namoyon etadi.

Diaxron kuzatuvlar natijasida aniqlandiki, dastlab sof ma’no ifodalagan -lar/-ler affiksi keyingi davrlarda semantik differensiyaga uchragan. Eski o‘zbek adabiy tili bosqichida, ayniqsa Alisher Navoiy ijodida ko‘plik shakli poetik umumlashtirish, obrazni ko‘lamdorlashtirish va estetik ta’sirchanlikni kuchaytirish vositasiga aylangan. Bu esa ko‘plik kategoriyasining grammatik chegaradan chiqib, stilistik tizimga integratsiyalashganini ko‘rsatadi.

Sinxron tahlil esa hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘plik kategoriyasi ko‘p qatlamli funksional maydon sifatida faoliyat yuritishini tasdiqlaydi. Unda real ko‘plik, hurmat ma’nosi, umumlashtirish, ekspressivlik, kollektivlik va mavhumlik kabi ma’no komponentlari o‘zaro uyg‘unlashgan. Ayniqsa hurmat ma’nosidagi ko‘plik o‘zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini aks

[6] O‘zbekiston miliy ensiklopediyasi. ‘‘Davlat’’ ilmiy nashriyoti,2004.B.212.
[7] G‘.Abdurahmonov,Sh.Shukurov,Q.Mahmudov.,,O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi’’.Toshkent.2008,B.85

ettiruvchi sotsiolingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa grammatik kategoriyaning pragmatiklashuvi jarayonini ko‘rsatadi.Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki:ko‘plik kategoriyasi tarixan strukturaviy barqarorlikni saqlagan;uning semantik doirasi kengaygan;funksional yuklamasi grammatik darajadan stilistik va pragmatik darajaga o‘sgan;ko‘plik shakli o‘zbek adabiy matnida obraz yaratish va tipiklashtirish vositasiga aylangan.

Shu jihatdan ko‘plik kategoriyasi o‘zbek adabiy tilida miqdor ifodalovchi oddiy morfologik birlik emas, balki tilning tarixiy rivoji, estetik tafakkuri va ijtimoiy-madaniy tajribasini mujassamlashtirgan ko‘p funksiyali lingvistik hodisa sifatida baholanishi lozim.

Tadqiqot natijalari ko‘plik kategoriyasini funksional-semantik maydon nazariyasi doirasida yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusida turkiy tillar qiyosida ko‘plik shaklining tipologik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, uning diskursiv va pragmalingvistik imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Normativ hujjatlar:

1. O‘zbekiston miliy ensiklopediyasi. ‘‘Davlat’’ ilmiy nashriyoti,2004.B.212.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

1.G‘.Abdurahmonov,Sh.Shukurov,Q.Mahmudov.,,O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi’’.Toshkent.2008.

2. Abdushukurov Baxtiyor Bo`riyevich.O`zbek tili tarixi:darslik.Toshkent:„Nodirabegim'' nashriyoti,2021.

3.Sodiqov Qosimjon.Qadimgi turkiy til.Toshkent,2000.

4.Ernazarova Mahliyoxon Qobiljonovna .''Ayub G`ulomovning o`zbek tilshunosligida grammatik kategoriyalarga oid tadqiqi(otlarda ko`plik kategoriyasi misolida).

Internet resurslari*:*

1.https:// uz.wikipedia.org